

YASHIL IQTISODIYOTDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING DOLZARBLIGI

Xudoyberdieva Dilafruz

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati

ORCID: 0009-0001-7313-3424

afruza1988.1988@gmail.com

Annotatsiya. Global iqlim o'zgarishlari, havo haroratining ko'tarilishi, Orol dengizining qurishi, cho'llanish, salbiy meteorologik jarayonlarning takrorlanishi, yer hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikning qisqarishi, o'simlik va hayvonot dunyosi genofondining yomonlashuvi, ko'p miqdordagi sanoat va maishiy chiqindilarning ko'payib borishi mintaqaviy ekologik muammolarning kundan-kunga chuqurlashib borayotganligidan dalolat bermoqda. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni izchillik bilan hal etish hamda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda jamiyatning barcha kuchlarini birlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, transformatsiya, ESG, ESG tamoyillari, NKMK, issiqxona gazlari, suv resurslari, elektr energiya samaradorligi.

АКТУАЛЬНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ПРИНЦИПОВ ESG В ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ

Худойбердиева Дилафруз

Акционерное общество «Навоийский горно-металлургический комбинат»

Аннотация. Глобальное изменение климата, повышение температуры воздуха, пересыхание Аральского моря, опустынивание, повторение негативных метеорологических процессов, рациональное использование земельных и водных ресурсов, сокращение биоразнообразия, ухудшение генотипа флоры и фауны, а также увеличение объемов промышленных и бытовых отходов свидетельствуют о том, что региональные экологические проблемы углубляются с каждым днем. Обеспечение экологической безопасности в стране, последовательное решение возникающих экологических проблем и объединение всех сил общества для обеспечения экономического развития является государственной политикой.

Ключевые слова: зеленая экономика, окружающая среда, экологическая безопасность, устойчивое экономическое развитие, трансформация, ESG, принципы ESG, парниковые газы, водные ресурсы, электроэнергетика.

THE RELEVANCE OF IMPLEMENTING ESG PRINCIPLES IN THE GREEN ECONOMY

Khudoyberdieva Dilafruz*“Navoi Mining and Metallurgical Combine” Joint Stock Company*

Abstract. *Global climate change, rising air temperatures, drying up of the Aral Sea, desertification, recurrence of negative meteorological processes, rational use of land and water resources, reduction of biodiversity, deterioration of the gene pool of flora and fauna, and the increase in large amounts of industrial and household waste indicate that regional environmental problems are deepening day by day. Ensuring environmental safety in the country, consistently solving emerging environmental problems and uniting all forces of society in ensuring economic development is a state policy.*

Keywords: *green economy, environment, environmental safety, sustainable economic development, transformation, ESG, ESG principles, greenhouse gases, water resources, electricity efficiency.*

Kirish.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda dunyo hamjamiyati ekologik va iqlim o'zgarishlari tufayli yuzaga kelayotgan muammolar va xatarlarga yechim topishga intilmoqda. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni izchillik bilan hal etish hamda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda jamiyatning barcha kuchlarini birlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim sanaladi.

Dunyodagi boshqa davlatlar singari mamlakatimizda ham ekologik vaziyatni himoyalash va tabiiy resurslarni avaylab asrash, undan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida bir qator qonunchilik hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Ekologik nazorat to'g'risida”gi, “Yer osti boyliklari to'g'risida”gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori kabi hujjatlar qabul qilingan.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijiy davlatlarning ilmiy izlanishlari va iqtisodchi olimlari Dylan K., Sandra Thompson va Cormac Hugh Maclar tomonidan korxonalarda Mahon EU Taxonomy, SFDR kabi regulatsiyalar orqali “yashil” faoliyatlarni aniqlash hamda sarmoyadorlarni himoya qilish muhim vazifalardan biri hisoblashgan bu takliflari ko'pchilik tomonidan maqullangan.

Rossiyalik olimlari Oleynikova va Semenovalar (2023) tomonidan asosan “yashil moliya”ni tarkibiy jihatlari uni afzalliklarini keltirib o'tganlar. Ayniqsa, yashil obligatsiyalar, sanoat tarkibi, qonunchilik, va tranzitsiyadagi muammolarining kelib chiqishi mahalliy iqtisodiy cheklovlarga sabab deb keltirilgan.

Mamlakatimizda yashil moliya bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan iqtisodchilarimiz Izbosarov va Baymurodova (2025) tomonidan resurslarning cheklanishi kichik biznesning yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlanishidagi muammolardan biridir. Kreditlash, texnologiyalarni olib kirish, energiya samaradorligi va ekologik innovatsiyalarni joriy etish masalalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir iqtisodchi Xalilov (2024) tomonidan ekologik moliyaviy hisobotlarda ekologik samaradorlik va resurs sarfini ko'rib chiqish, kompaniyalar faoliyatining ekologik ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi deb keltirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning yashil iqtisodiyotda ESG tamoyillarni joriy etishning dolzarbligining maxaliy amaliyot va xorijiy dalatlar tajribalari masalalari bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbatlar, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islohotlarni olib borishda avvalambor, ekologik munosabatlarni izchil ravishda amalga oshirishda O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish Strategiyasiga muvofiq mamlakatda 2030 yilgacha bo'lgan davrda davlat dasturlarini izchilik bilan amalga oshirish va amaliyotga joriy etish qo'llab-quvvatlanmoqda.

Mamlakatda "yashil iqtisodiyot"ning maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiyotni barqaror rivojlanish chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab olingan.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlari




1-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlari

Manba: muallif omonidan tuzilgan.

"Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Taroziining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi... Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o'tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun "yashil" va raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo'lib turibdi",- deb ta'kidlagan edi

Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.

Yurtimizda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 oktabrdagi PQ-4477-sonli qarori (2019) bilan 2019-2030 yillar davomida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi hamda 2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori (2022) tasdiqlandi.



2-rasm. O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishning quyidagi maqsadlari

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlikda davlat ulushi bor korxonalarda ESG tamoyillarini joriy etish imkoniyatlari, yuzaga kelayotgan muammolar, ularning yechimi va mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Yirik sanoat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini (Environmental, Social, Governance – ESG) joriy qilinishi holati o'rganildi. Ushbu tamoyillarni tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi hamda ular uchun seminar va treninglar tashkil qilindi. Xususan, OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyiha doirasida quyidagi ishlar olib borildi:

- barqaror investitsiyalarning ESG tamoyillari bo'yicha milliy darajadagi siyosat, strategiya va me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar tayyorlandi;
- tarmoqlar va korxonalar tomonidan barqaror investitsiya me'yorlariga rioya etish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqildi;
- ESG tamoyillarini joriy etish bilan bog'liq tahliliy ma'lumotlar va hisobotlar tayyorlandi. Shu bilan birga mazkur loyiha doirasida:
- Osiyo taraqqiyot banki texnik ko'magi asosida davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarni tatbiq etish maqsadida malakali xorijiy ekspertlar jalb qilindi;

➤ “Moody’s” xalqaro reyting agentligi va xorijiy ekspertlar ishtirokida qator davlat ishtirokidagi korxonalarning 50 dan ziyod mutaxassislari uchun “Davlat ishtirokidagi korxonalarda “ESG” tamoyillarini tatbiq qilish yo’nalishlari” mavzusida onlayn seminar tashkil etildi;

➤ xorijiy ekspert tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalarda “O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘ztransgaz” AJ, “O‘zmetkombinat” AJ, “O‘zkimyosanoat” AJ, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “Navoiy kon metallurgiya kombinati” AJda ESG tamoyillarini tatbiq qilish holati alohida o‘rganildi hamda respublikadagi korxonalarda ESG tamoyillarini joriy etish yo’nalishida xalqaro ilg‘or tajribadan kelib chiqib, hisobot ishlab chiqildi.

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining muhim vazifalaridan biri – sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va yakunlashdan iborat. Zero, transformatsiyalash, bu - qulay investitsiya muhitini yaratish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, xarajatlarni kamaytirish hisobiga daromadlarni oshirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishni nazarda tutadi va raqobat muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin egallagan yirik soliq to‘lovchi, strategik qazilmalarning ulkan zaxirasiga ega bo‘lgan, oltin ishlab chiqarish bo‘yicha jahonning TOP-10 ta kompaniyalari safida 4-o‘rinni egallagan Navoiy kon metallurgiya kombinati faoliyatiga bu jarayon birinchilardan bo‘lib tadbiq etildi. Xorijiy investorlar va xalqaro moliya bozori ishtirokchilari uchun kombinat faoliyatining shaffofligini ta‘minlash maqsadida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq, kombinatning 2021-2023 yillardagi moliyaviy hisoboti “Deloitte and Touch” xalqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan auditdan o‘tkazildi va ijobiy xulosalar olindi. Bugungi kunda esa kombinatda xorijiy investorlar talabiga muvofiq, xalqaro auditorlik kompaniyasi ishtirokida Jahon Initiative Report (GRI) standartlari asosida barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi hisobot (ESG) tayyorlanmoqda.

Kombinat faoliyatida “yashil energetika” dasturini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. 2024 yil yakunlari bilan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridagi energiya iste‘moli ulushi 16 foizni tashkil etdi.

Zarafshon-Uchquduq hududida 500 megavatt quvvatga ega yirik fotoelektr stansiyasini qurish loyihasi ishlab chiqilmoqda. Ushbu fotoelektr stansiyasi 2025 yil yakunida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, buning natijasida qariyb 1 milliard kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqarish imkonini beradi va qayta tiklanadigan manbalardan iste‘mol qilinadigan energiya ulushini 2026 yilda 46 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari kombinat faoliyatida muqobil energiya manbalardan nafaqat elektr energiyasi, balki quyosh energiyasidan foydalangan holda issiqlik ishlab chiqarishga ham e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, yoz mavsumida NKMKning issiq suv ta‘minotiga bo‘lgan ehtiyoji 100% qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan qoplanadi, bu esa atmosferaga CO2 chiqindilarini 3242 tonna miqdorida sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Atrof-muhitga ta‘sirini minimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun chiqindilar va qoldiqlarni boshqarish NKMKda mas‘uliyatli qazib olishning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmonining (2025) qabul qilinishi barqaror rivojlanish sohasidagi strategik maqsadlarni amalga oshirishga bo‘lgan intilishimizni mustahkamladi. Farmonga asosan “Tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili asosida davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va ishlab chiqarish xarajatlarini 15-20 foizgacha qisqartirish maqsadida 2025 yil yakuniga qadar ESG reytingini olish belgilab olindi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasi o'laroq belgilab berilgan topshiriq ijrosi 2025 yil yanvar oyida ta'minlandi. NKMK O'zbekistonning tog'-kon sanoati sohasida birinchi bo'lib Sustainable Fitch agentligidan o'zining debyut xalqaro ESG reytingini oldi va bu uning sohadagi yetakchi mavqei, ochiqlik va barqaror rivojlanishning xalqaro tamoyillariga sodiqligini ko'rsatib berdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun barqaror rivojlanish, ekologik, ijtimoiy va korporativ javobgarlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. ESGni o'zgartirish va barqaror rivojlanishning xalqaro tamoyillarini amalga oshirish kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish vositalaridan biridir. Xalqaro Oltin Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan mas'uliyatli oltin qazib olish tamoyillari (RGMP) oltin qazib oluvchi kompaniyalar uchun ilg'or xalqaro tajriba va standartlarni joriy etish bo'yicha dastak hisoblanadi. Ushbu maqsadlarni ta'minlash maqsadida 2023-yilda kompaniya tomonidan mustaqil xalqaro maslahatchini jalb qilgan holda xalqaro standartlar talablari bo'yicha birinchi keng ko'lamli audit o'tkazildi. Ushbu audit kompaniyaning barcha aktivlarini qamrab oldi. Audit natijalariga ko'ra korporativ darajadagi tadbirlar dasturi shakllantirildi va tasdiqlandi. Shuningdek, 2024 yil davomida joriy etildi. Ushbu tadbirlar 2025 yilda ham davom ettirilishi ko'zda tutilgan.

Kompaniyaning muvaffaqiyati jamoaviy ish samaradorligi va har bir xodimning kasbiy mahoratiga bevosita bog'liq. Korxona xodimlari uchun jozibador mehnat sharoitlari, adolatli ish haqi, ijtimoiy himoya va teng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmining barqarorligi va o'sishini ta'minlash maqsadida NKMK quvvatlarni kengaytirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni, shuningdek, jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuv chora-tadbirlarini amalga oshirishni davom ettiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov. (2025) *Problems and prospects of developing small business in Uzbekistan under the conditions of a green economy.* «Yashil IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT» jurnali, Vol. 3 No. 6.

Bunevich K.G., Gorbacheva T.A. «Zelenie» tendensii v razvitii mirovoy finansovoy sistemi. Vestnik moskovskogo universiteta. Im.S.Yu.Vitte. Seriya 1. Ekonomika i upravlenie. 2022.No1 (40) 52-60 El. jurnal (cyberleninka.ru)

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" dagi PF-16-son Farmoni*

Khalilov Sherzod Akhmatovich. (2024) *Development of a green accounting methodology in uzbekistan: lessons from the malaysian experience. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 1, February. ISSN: 2181-1016*

Kirby, D., Thompson, S. and Macmahon, C. (n.d.). *Shifting the EU Taxonomy from Theory to Practice: A Review of Shifting the EU Taxonomy from Theory to Practice: A Review of the Literature highlighting Potential Academic Contributions to its the Literature highlighting Potential Academic Contributions to its Adoption, Implementation, and Impact Adoption, Implementation, and Impact.* [online] doi:<https://doi.org/10.21427/62jq-1r86>.

Oleynikova I.N., Semenova N.N. (2023) «Зеленые» финансы: сущность и опыт «зеленого» финансировании различных стран. Vestnik Taganrogskego instituta imeni A.P. Chexova. № 3

Qaror (2019) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4477-son qarori.*

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda gi "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-436-son qarori.*